



## **ASHTARXONIYLAR HOKIMIYATINING TUGATILISHI**

**Abdullayeva Muslima Baxodir qizi**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi*

**N.A.Egamberdiyeva**

*Ilmiy rahbar t.f.d. prof.v.b.*

**Annotatsiya:** Ashtarxoniylar sulolasi hokimiyati Buxoroning tarixida muhim tarixiy davr hisoblanadi. Ammo ushbu sulola hokimiyati bir yarim asr davomida o'z faoliyatini olib brogan bo'lsada, XVIII asr o'rtalariga kelib, hokimiyatda siyosiy inqirozlar kuzatildi. Bu siyosiy inqirozdan tashqi dushmanlar osonlikcha foydalanib qoldi. Buning natijasida ashtarxoniylar sulolasi hokimiyatni qo'ldan chiqardi.

**Kalit so'zlar.** Ashtarxoniylar, Abulfayzxon, Buxoro, Eron, Nodirshoh, Muhammad Hakimbiy, qoo'shbegi, otaliq, amir al-mo'minin.

### **Kirish**

Mustaqillik sharofati bilan tariximiz, milliy qadriyatlarimiz tiklandi. Vatanimiz tarixini o'rganish milliy o'zligimizni anglashga ko'mak beradi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur", - deb yozadi.[ 1]

Tariximizni o'rganish haqida hozirgi kundagi prezidentimiz ham o'z fikrlarini aytib o'tadilar. Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir.[2]

Mamlakatimiz tarixida Buxoro xonligi muhim o'rinni egallaydi. Buxoro xonligi o'ziga xos davlat boshqaruvi tizimi, milliy qadriyatlari va hududiy jihatlari bilan ajralib turadi. XVI asr boshlarida shayboniylar sulolasi tomonidan tashkil etilgan Buxoro xonligida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda, san'at, adabiyot, me'morchilik kabi sohalar ham rivojlandi. Ammo keying asrlarda sulolalar almashinuvi yuzaga keldi. XVIII asrda Eron shohi tomonidan bu hudularni istilo qilinishi hokimiyatni qo'l ostida ushlab turgan ashtarxoniylar sulolasini taxtdan ag'darilishiga sabab bo'ldi. Undan tashqari aynan shu davrga kelib ashtarxoniylar





sulolasi siyosiy va iqtisodiy inqirozga duchar bo'ldi. Mana shunday turli sabablar tufayli, hokimiyat yangi sulola mang'itlar sulolasi qo'liga o'tadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Maqolada bugungi kunda chiqarilgan A.Zamonov “Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari” metodik qo'llanma va Eshov B.J., Odilov A.A. “O'zbekiston tarixi”, II kitoblari va sulola hukmronligi davrida yozilgan Muhammad Karminagiyning “Tuhfat ul-xoniy”, Muhammad Ya'qubning “Gulshan ul-mulk”, “Tarixiy Amir Haydar”, “Mirolim Buxoriyning “Fathnomayi sultoni” va Ahmad Donishning “Mang'it xonadoni tarixining maxtasar tarixi” manbalarida keltirilgan ma'lumotlar taqqoslanib, qiyosiy tahlil qilinib, tanqidiy tahlil qilish metodlari asosida xulosa qilingan.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

O'sha davrlarda yashagan tarixnavislardan Muhammad Karminagiyning “Tuhfat ul-xoniy”, Muhammad Ya'qubning “Gulshan ul-mulk”, “Tarixiy Amir Haydar”, “Mirolim Buxoriyning “Fathnomayi sultoni” va Ahmad Donishning “Mang'it xonadoni tarixining maxtasar tarixi” kabi manbalarda Buxoro amirligi tarixi haqida muhim va noyob ma'lumotlar uchratishimiz mumkin. Ahmad Donishning “Mang'it xonadoni tarixining maxtasar tarixi” asarining 1-qismida Doniyolbiy hukmronligining oxirgi yillari va Amir Shohmurod, Haydar, Nasrullo hukmronligi haqida yoziladi. Rus hukumati tomonidan o'lkani o'rganish uchun geograf, topograf, injener, sharqshunos olimlar elchilar qiyofasida jo'natilgan. Ular o'z esdalik va asarlarida Buxoro amirligi to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tganlar. Rossiyadan, aniqrog'i, Orenburg shahridan birinchi katta savdo karvoni 1753-yili yo'lga chiqqani ma'lum. Uning tarkibida Samara shahridan savdogar Danila Rukavkin ham bor edi. U ko'rgan kechirganlarini tafsilotlari, 1753-yili Orenburgdan u yerlarga savdo karvoni bilan jo'natilgan samaralik savdogar Danila Rukavkin tavsifida nomli safarnomasida yozib qoldirgan. Mazkur asarning ba'zi qismlari XX asr 80-yillarida Boris Lunin tomonidan tuzilgan to'plamda o'z aksini topgan. Yuqorida keltirilgan manbalar asosida mustaqil ishda Buxoro amirligining tashkil topishi yoritiladi.

### **Natijalar va ularning tahlili**

Ashtarxoniylar davrida siyosiy nizo va beboshliklar deyarli to'xtamagan. Shunday bir vaziyatda xonlik taxtiga chiqqan Abulfayzxon ahvolni tuzatish uddasidan chiqqan olmadi. Isyonlar haddan tashqari kuchaygan va sinfiy kurash keskinlashadi. Abulfayzxoniga yaqin shaxslar Buxorodan Muhammad Hakimni chetlatishga xonni rozi qiladilar va otaliq Qarshiga jo'nab ketadi. Biroq, hokim o'rniga boshqasi tayinlanadi. Ochko'z va ta'magir mansabdorlar shaharda bozor va rastalarni o'z qo'llariga kiritib olishga hamda biron mol bilan savdo qilishni o'z foydalariga





monopoliya qilib olishga harakat qiladilar. Abulfayzxon esa bu vaqtda ichkilikka berilgan, saroyda buzg'unchilik ishlarini avj oldirgan edi. Bundan tashqari, nomusulmon bo'lgan jo'ng'orlar quvg'inidan qochgan qozoq ulamolariga nisbatan xon hokimiyati tomonidan yetarli e'tibor bo'lmaganligi va buning oqibatida musulmonlar o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan ushbu ulamolarning yetti yil davomida sarson-sargardonchilikda bo'lishlari aholining xonga bo'lgan hurmat e'tiborini yo'qolishiga olib kelgan. Shu bilan bir qatorda, xonning bevosita yo'l qo'yib berishi natijasida Ibodullo xitoy va uning tarafdorlari tomonidan muqaddas qadamjo hisoblanadigan Xo'ja Bahovuddin xonaqosining vayron etilishi aholining kuchli noroziligini kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Abulfayzxonidan norozi bo'lgan o'zbek amirlari uni o'ldirish payiga tushdilar va Xiva xoni Sherg'ozixonni Buxoro taxtiga qo'ymoqchi bo'ldilar. Biroq fitna fosh bo'lib uning tashkilotchilari qatl qilinadilar. Sherg'ozixon bu bilan ham tinchimadi. Shahrisabz hokimi kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiy Urgut va Miyonqol hokimlari bilan til biriktirib, Buxoro xonligida mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga qaror qildi. Ibrohimbiy Muhammad Hakimbiydan hokimiyatni tortib olish maqsadida 1722-yilda o'z kuyovi xivalik Rajab Sultonni Samarqandda xon qilib ko'targan. Ibrohimbiy esa uning huzurida amir ul-umaro unvonini olgan. Rajabxonni juda ko'p amirlar qo'llab-quvvatlagan va unga kelib qo'shilganlar. Ularning himoyasi va fatvosi bilan Rajabxon hatto qo'shin to'plab Buxoroga yurish boshlagan. Yo'l-yo'lakay unga yangi kuchlar kelib qo'shilgan. Ikki o'rtada qattiq jang bo'lgan. Muhammad Hakimbiy qo'shinlari yengilgan, chunki uni o'zbeklardan hech kim himoya qilmagan. Ammo shunga qaramasdan Rajabxon Buxoroni ololmagan. U yordam so'rab ko'chmanchi qozoqlarga murojaat qiladi va ko'chmanchi qozoqlarga istilo qilingan joylardan katta o'ljalari olib borishni va'da etadi. Iqtisodiy ahvoldan nochor bo'lib cho'lda qayerga borishni bilmay daydib yurgan qozoqlar bu taklifni jon-jon deb qabul qiladilar va butun o'tovlari va chorva mollari bilan Samarqand viloyatiga ko'chib keladilar. Ular bu yerdan butun Miyonqol bo'ylab Buxoro tumanlarigacha bo'lgan joylarni egalladilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, hatto Rajabxonning o'zi ham nima qilarini bilmay qoladi. Muhammad Hakimbiy bilan Abulfayz esa yashirinib oldilar. Qozoqlar hech qanday qarshilikka uchramasdan yetti yil mobaynida Zarafshon vohasini talab xarobazorga aylantirdilar. Mahalliy aholi bu yerdan tinchroq hududlarga ko'chib keta boshladi, ularning ancha qismi qozoqlarga asir bo'lib tushadi. Xondan xalqning noroziligi kuchayib ketadi. Abulfayz o'z yaqinlarining maslahati bilan Muhammad Hakimbiyni Buxorodan chetlatadi. Otaliq Qarshiga ketadi. Ammo hokimiyatdan chetlatilgan bir hokim o'rniga bir nechasi paydo bo'ladi. Yeb to'ymas, ochko'z va tamagir mansabdorlar





bozor va rastalar, savdo shoxobchalarining hammasini o'z qo'llariga markazlashtirib oladilar.[3]

Abulfayzxon esa vaqtni ko'ngilxushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketadi. Uning yeti farzandi bor edi. Mastlik chog'ida ularni o'limga mahkum etadi. Hali go'dak bo'lgan Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirib, omon qolgan. Xon davlat ishlarini deyarli nazorat qilmay qo'ydi. Bu og'ir sharoit tashqi dushmanlarga yo'l ochib bergan edi.

Ashtarxoniylar va Eron o'rtasidagi munosabat XVIII asr boshlarida keskinlasha boshladi. Bu davrda taxtga hali go'dak bo'lsa-da, Abulmo'min taxtga o'tqaziladi. Xon davlat ishlarini deyarli nazorat qilmay qo'ydi. Oliy hokimiyat amalda oliy qo'shbegi qo'lga o'tadi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi siyosiy tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Badaxshon amalda mustaqil bo'lib oldilar. Bu ahvol dushmanlarning Movarounnahrda botirib kirishga qulay imkoniyat yaratdi. Bundan esa Eron shohi Nodirshoh foydalanib qoldi.

Eron shohi Nodirshoh Kavkaz, Hindiston, Usmonli turklar saltanati va Afg'onistonga qarshi zafarli yurishlardan so'ng, 1736-yili Buxoro xonligiga bostirib kirdi. Nodirshohning o'g'li Rizoquli yetakchiligida qo'shinlar Amudaryodan o'tib, ko'pgina hududlarni bosib oladi va Qarshini 15 kun qamal qiladi. Bunday og'ir sharoitda Buxoro xoni Xiva xonidan yordam so'rashga majbur bo'ladi. Xiva xoni Elbarsxonning yordamga kelayotganidan xabar topgan Nodirshoh buyrug'iga binoan Rizoqul qo'shinlari orqaga qaytib ketadilar.

1740-yilda Eron qo'shinlari Buxoroga qarshi ikkinchi marta hujum qiladi. Bu safar qo'shinni Nodirshohning o'zi boshqaradi. Buxoro va Xiva xonlari umumiy dushmanga qarshi kurashish uchun birlasha olmaydi. Bu ham yetmaganidek, Buxoroning o'zida xoinlik yuz beradi. Xonlikda yetakchi mavqe'ga ega bo'lib olish niyatidan qaytmagan Qarshi hukmdori Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomonga o'tib ketadi. Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtira olmay, taslim bo'ladi. Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxonga jo'natadi. Abulfayzxon Zarafshon daryosining bo'yidagi Chorbakr qo'rig'iga Nodirshoh huzuriga borishga va shartnoma imzolashga majbur bo'ladi. Shartnomaga ko'ra, Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming bug'doy va arpa to'plab beradi. Undan tashqari Buxoro xonligi 10 ming nafarli qo'shin to'planib Nodirshoh huzuriga jo'natiladi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim qo'mondon etib tayinlanadi. Abulfayzxon amalda Eronga qaram qo'g'irchoq hukmdorg aylandi. Shunday qilib, Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylanadi. Muhammad Hakimbiy esa, imkoniyatdan foydalanib, qo'shbegi lavozimini egallaydi. Butun hokimiyat amalda



uning qo'lida to'planadi. Ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi muqarrar bo'lib qoldi.

Nodirshoh Movarounnahr hukmronligini Abulfayzxonning o'ziga topshiradi. Biroq Nodirshoh Buxoro ma'murlari va aholisi bilan faqatgina Muhammad Hakimbiy orqali aloqa qilardi. Chunki shoh unga tamomila ishonch bilan qarar edi. Otaliqqa shoh qo'shini uchun naqd pul, 200 ming eshakka ortilgan bug'doy va boshqa yem-xashak yetkazib berish topshirilgan edi. Shoh qo'shinini to'ldirish uchun Buxoro qo'shinidan o'n ming otliq askar ajratib olingan edi. Hakimbiy otaliqning ukasi Muhammad Doniyolbiy Karmana hokimi qilib tayinlanadi. Muhammad Hakim Nodirshohning ishonchiga sazovor bo'lgan amaldor sifatida Buxoroning o'zida davlatning yuqori mansabida ishda qoladi. Abulfayzxon endi unga qaram bo'lib qolgan edi.

Nodirshohning sarkardalari Balx yo'li bilan, Muhammad Rahimbiy esa Marv yo'li bilan Buxoroga kelib, mazkur tarixda Abulfayzxonni qatl etib, kechiktirmay uning o'rniga o'tirib xon bo'lmoqchi edi. Mirzo Salimbekning yozishicha, Muhammad Rahimbiy Nodirshoh sarkardalaridan oldin Buxoroga kelgan va o'zining birodarlari, qabila sardorlari bilan diydorlashgan. Albatta, bu diydorlashish asnosida Muhammad Rahimbiy o'z yaqinlari bilan siyosiy maqsadlarini ham maslahatlashgan bo'lishi tabiiy edi. Shu vaqtda Buxoroda Nodirshoh o'limi haqida xabar tarqaldi. Eron sardorlari katta kuch bilan Buxoroga hujum qilib, uni uzoq qamal qiladilar va shaharga ko'p talafot yetkazadilar. Mahalliy amaldorlardan Muhammad Aminbiy Hisoriy, Olimbiy kenagas, G'aybullobiy, Tog'ay Murod barqut, Muhammadxo'ja naqib jam bo'lishib, Abulfayzxonni Eronga jo'natib uni Eron lashkariga topshirish aqldan emasligi to'g'risida maslahatlashib oladilar. Ikkinchi tarafdan, uning mavjud bo'lishi ham ko'pgina noxushliklarga sabab bo'lishi, xonning qatl etilishi esa Buxoro shahri aholisini zahmatlardan xalos qilishi hamda Eron lashkarlari qamalini to'xtatishi mumkinligi e'tirof etildi. 1747-yil Abulfayzxon shu qarorga muvofiq, Mir Arab madrasasi hujralaridan birida qatl etiladi.[4]

Bu voqeadan sal ilgari Nodirshohning to'rt sarkardasi – Hasanxon, Behbudxon, Shohqulixon va Salimxonlar Buxoro ustiga kelayotganini eshitgan qo'zg'olon rahbari Ibodullobiy Miyonqoldan Toshkent tomonga qochishga ulguradi. Sardorlar uning ortidan Jizzaxgacha ta'qib qilib, keyin Buxoroga qaytadilar. Xonning qatl etilganligini eshitib, Muhammad Rahimga “Nega shohning ijazatisiz bu ishni qilding” - deb so'raydilar. Muhammad Rahim esa: “Sizning shohingiz o'ldi. Sizlar ham mening asirimsiz” - deb javob beradi. Natijada ikki tomon bir-biri bilan nizolashib, Eron sarkardalari shaharda bir necha kun jang qildilar. 1747-yil iyun-iyul oylarida ular o'z artilleriyasi bilan Buxoro atrofini to'pga tutgan. Muhammad Rahim



shahar hunarmandlari ko'magida shahar devori va darvozalarini ta'mirlab mudofaani kuchaytirgan. Eron sarkardalari Nodirshoh vafotiga ishonganlaridan so'ng Muhammad Rahim bilan sulh tuzib, Adulfayzxonning o'g'li Abdulmo'minni otasi o'rniga xonlik taxtiga chiqarib Eronga qaytdilar. Shu tariqa, xonlik taxtini rasman 36 yil boshqargan Abulfayzxon 1747-yilda o'ldiriladi.[5]

1747-yil Nodirshoh o'ldirilgandan so'ng, Eronda boshlangan ichki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochib berdi. Uning buyrug'I bilan Abulfayzxon ham 1747-yilda o'ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzxonning o'g'li Abdulmo'minni o'tqazadi va uni o'ziga kuyov qilib oladi. Ko'p o'tmay Muhammad Rahimbiy kuyovi Abdulmo'minni, uning o'rniga o'tqazilgan soxta xonlarni ham qo'shib qatl qildiradi. Muahmmad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhiniylarining qo'llab-quvvatlashi bilan 1753-yilda hokimiyatni to'la egalladi. Biroq mang'itlar chingiziylar nasliga mansub bo'lmaganligi uchun mang'it hukmdorlari o'zlarini xon emas, amir deb ataganlar. Ular ayni paytda mintaqaning diniy hukmdori – amir al-mo'minin hisoblanganlar.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, Ashtarxoniylarning so'nggi vakillari davlatni boshqarish, uni mustahkamlash va davlatning ichki hamda tashqi xavfsizligi masalalariga jiddiy e'tibor qaratganlar. Buning oqibatida joylardagi ichki siyosiy nizolarni hal etish va Eron davlati tomonidan bo'lgan tashqi xavf oldida mamlakat ojiz bo'lib qolgan edi. Shu bilan birga, turli sabablar bilan bir qatorda, mamlakatda bunday xavfli vaziyatning yuzaga kelishiga uchta omil muayyan darajada o'zining ta'sirini o'tkazgan. Brinchidan, xonlikning hududning markazlaridan biri hisoblangan hamda mamlakatning asosiy iqtisodiy, ma'rifiy va harbiy resurslari joylashgan Samarqand bekligini xonning asosiy raqiblaridan biri bo'lgan Rajab Sulton boshqaruviga o'tishi hisoblanadi. Ikkinchidan, jung'orlar quvg'inidan qochgan qozoq ulamolariga nisbatan xon hokimiyati tomonidan yetarli e'tibor bo'lmaganligi va buning oqibatida musulmonlar o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan ushbu ulamolarning yeti yil davomida sarson-sargardonchilika bo'lishlari aholining xonga bo'lgan hurmat e'tiborini yo'qolishiga olib kelgan. Hokimiyatning ashtarxoniylar qo'lidan mang'itlar qo'lga o'tishida yana bir asosiy va muhim omil bu tashqi-siyosiy vaziyat hisoblanadi. Eron shohi Nodirshohning tashqi siyosati asosan Buxoro xonligini o'z ta'sir doirasiga olishga qaratilganligi xonlikda hokimiyatni o'zgarishiga sabab bo'lgan. Shunday bo'lsada Ashtarxoniylar davrida ham ko'plab masjid, madrasalar, bozorlar, hammomlar, karvonsaroilar, rabotlar, xonaqohlar, sardobala va boshqa inshootlar qurildi. Undan tashqai ko'plab olimlar tomonidan sulola tarixiga oid va xonlarga bag'ishlab nodir asarlar yozib qoldirishdi. Ashtarxoniylar Movarounnahr hududida 150 yildan oshiqroq vaqt davomida hukmronlik qildi. Shu





tariqa, Ashtarxoniylar hukmronligi barham topib, Mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Keyinchalik Mang'itlar sulolasi hukmdorlari Buxoro xonligi nomini Buxoro amirligi deb o'zgartiradilar. O'zlarini esa amir deb ataydilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 17-bet
2. Sh.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz” Toshkent -2017 29-bet
3. A.Zamonov “Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari” Metodik qo'llanma. Toshkent, 2021 118-bet.
4. Eshov B.J., Odilov A.A. “O'zbekiston tarixi”, II kitob, Toshkent, 2020 251-268-betlar.
5. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O'.Ubaydullayev “Vatan tarixi” 2-kitob Toshkent, 2010 - 76-bet.